



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MONOPOLIYAGA  
QARSHI KURASHISH QO‘MITASI**

001774

**B U Y R U Q**

Toshkent shahri

“ 28 ” -yanvar 20 22y.

№ 13-ICH

**O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasining markaziy apparati, hududiy boshqarmalari va idoraviy mansub tashkilotlari xodimlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o‘tkazish bo‘yicha reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5177-son qaroriga muvofiq Qo‘mita tizimida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni oldini olishga qaratilgan asosiy talablar va tamoyillarni belgilash, jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish madaniyati darajasini oshirish uchun Qo‘mita markaziy apparati, hududiy boshqarmalari va idoraviy mansub tashkilotlarining yuqori axloqiy me‘yorlarga sodiqligini, shuningdek, Qo‘mita tizimi xodimlari tomonidan o‘z faoliyatida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishiga yo‘l qo‘ymaslik va bu borada samarali tizimni shakllantirish maqsadida **buyuraman**:

1. O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasining markaziy apparati, hududiy boshqarmalari va idoraviy mansub tashkilotlari xodimlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o‘tkazish bo‘yicha reglamenti ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Inson resurslari va xodimlar salohiyatini rivojlantirish boshqarmasi (Maxmudov) Qo‘mita markaziy apparati, hududiy boshqarmalari va idoraviy mansub tashkilotlar xodimlarini bir hafta muddatda mazkur buyruq bilan tanishtirilishini ta‘minlasin.

3. Devonxona (Ikramova) mazkur buyruqni Qo‘mita markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalari, Iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish agentligi va hududiy boshqarmalarga yuborilishini ta‘minlasin.

4. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Rais

Sh. Sharaxmetov

**O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasining  
markaziy apparati, hududiy boshqarmalari va idoraviy mansub tashkilotlari  
xodimlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari va odob-axloq qoidalarini  
buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o‘tkazish to‘g‘risidagi  
REGLAMENT**

**I bob. Umumiy qoidalar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi tizimi xodimlari tomonidan korrupsiyaga qarshi ichki nazorat va odob-axloq qoidalari buzilishi bilan bog‘liq xizmat tekshiruvlarini o‘tkazish to‘g‘risidagi Reglament (keyingi o‘rinlarda - Reglament) O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi, hududiy boshqarmalari hamda idoraviy mansub tashkilotlarining (keyingi o‘rinlarda - Qo‘mita tizimi) ichki hujjati bo‘lib, korrupsiya to‘g‘risidagi ma‘lumotlar, shuningdek, Qo‘mita tizimi xodimlarining O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasida korrupsiyaviy xatti-harakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlarni (keyingi o‘rinlarda – xizmat tekshiruvlari) boshlash va o‘tkazish, xizmat tekshiruvlar o‘tkazish uchun mas‘ul bo‘lgan ishchi guruhlarini tuzish, tegishli hisobotlarni tayyorlash va yuritish hamda xizmat tekshiruvlar natijasida qabul qilingan qarorlarning bajarilishini nazorat qilish tartibini belgilaydi.

2. Hech qanday shubha tug‘dirmaslik uchun ichki ishlar, tergov va sud organlarining mutlaq vakolati bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi normalarini buzganlikda aybdorlarni aniqlash maqsadida xizmat tekshiruvlar o‘tkazilmaydi.

3. Ushbu Reglament quyidagi maqsadlarda ishlab chiqilgan:

Qo‘mita tizimida xizmat tekshiruvlarini o‘tkazishda yagona yondashuvni belgilash;

fuqarolarning huquqlari va erkinliklari buzilganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarga Qo‘mita tizimining tegishli ta‘sir choralarini ta‘minlash;

xizmat tekshiruvlari jarayoni va natijalarini hujjatlashtirish talablarini belgilash;

huquqbuzarliklar sodir etilishiga, Qo‘mita tizimiga zarar yetkazilishi sabablari va imkon bergan sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish;

Qo‘mita tizimida qabul qilingan ichki hujjatlar va nazorat tartib-qoidalarining kamchiliklarini aniqlash va kelgusida huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida ularni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

amaldagi qonunchilik talablarini buzganlik uchun Qo‘mita tizimini va uning xodimlarini javobgarlikka tortish xavfini kamaytirish.

4. Xizmat tekshiruvlarda ishtirok etadigan Qo‘mita tizimining xodimlari ushbu Nizomda belgilangan talablarning bajarilishi uchun shaxsan javobgardir.

5. Qo'mita tizimidagi xizmat tekshiruvlari quyidagi tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga rioya qilish;  
Qo'mita tizimi xodimlarining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya qilish;

fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlash va himoya qilish;  
xizmat tekshiruvlari davomida olingan ma'lumotlar va materiallarning maxfiyligi, shu jumladan ulardan faqat ishchi guruh a'zolari va Qo'mita, tegishli hududiy boshqarmalar yoki idoraviy mansub tashkilotlar rahbarlariga foydalanish huquqini berish;

Qo'mita tizimi xodimlari tomonidan xizmat tekshiruvi o'tkazish jarayonida oshkoralik, vijdonlilik, kollegiallik, beg'arazlik va xolislik;

o'zlariga nisbatan xizmat tekshiruvi olib borilayotgan Qo'mita tizimi xodimlarining aybsizligi prezumsiyasi.

## **II bob. Xizmat tekshiruvni boshlash**

6. Xizmat tekshiruvi korrupsiyaga qarshi kurashish va kasbiy etika sohasidagi O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligi va/yoki Qo'mita tizimining ichki hujjatlari buzilishiga olib kelgan, korrupsiya belgilari yoki Qo'mita tizimi xodimlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasida korrupsiyaviy xatti-harakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari to'g'risida yetarli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan asoslar va ma'lumotlar mavjud bo'lgan taqdirda, xodim faoliyat yuritayotgan kompleks rahbarini xabardor qilgan holda boshlanadi.

7. Bunday ma'lumotlar quyidagi manbalardan olinishi mumkin:

Qo'mita tizimi xodimlarining yozma yoki og'zaki ravishda ularning bevosita rahbariga yoki boshqa vakolatli shaxsga bildirgan xabarlar;

Ichki audit, korrupsiyaga qarshi komplayens va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish boshqarmasi tomonidan qabul qilingan xabarlar;

korrupsiyaviy harakatlar yoki O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasida korrupsiyaviy xatti-harakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni qabul qilish uchun ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi, hududiy boshqarmalari hamda idoraviy mansub tashkilotlarining aloqa kanallariga taqdim etilgan jismoniy va yuridik shaxslarning xabarlar, shu jumladan anonim xabarlar;

Prezidentning virtual qabulxonasi orqali qabul qilingan murojaatlar (<https://pm.gov.uz>);

ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan ma'lumotlar, shuningdek, jamoatchilikka ochiq boshqa manbalar (ijtimoiy tarmoqlar, forumlardagi munozaralar va Internetdagi boshqa munozaralar);

Qo'mita tizimining elektron pochtaga kelib tushgan murojaatlar;

manfaatdor tomonlar o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalari, shu jumladan sotsiologik va statistik tadqiqotlar natijasida olingan ma'lumotlar;

Ichki audit, korrupsiyaga qarshi komplayens va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish boshqarmasi, shuningdek davlat moliyaviy nazorati organlari va O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining xulosalari;

Ichki audit, korrupsiyaga qarshi komplayens va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish boshqarmasi tomonidan korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga rioya etilishini monitoring qilish va nazorat qilish natijalari;

O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyasiga ma'lum bo'lgan ma'lumotlar yoki ular tomonidan qabul qilingan qarorlar;

tergov harakatlari va surishtiruv funksiyalarini o'tkazish uchun mas'ul bo'lgan davlat xizmatchilarining Qo'mita tizimi xodimlariga nisbatan jinoyat sodir etilishi to'g'risidagi gumonlari bilan bog'liq murojaatlari;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi va boshqa yuqori turuvchi davlat organlarining ko'rsatmalari;

boshqa kanallar orqali olingan korrupsiyaviy xarakterdagi ma'lumotlar.

8. Quyidagilar xizmat tekshiruvining tashabbuskorlari bo'lishi mumkin:

Qo'mitaning markaziy apparati xodimlarini va umuman Qo'mita tizimini tekshirish nuqtai nazaridan Qo'mita raisi va uning o'rinbosarlari;

hududiy boshqarmalarning rahbarlari va ularning o'rinbosarlari;

idoraviy mansub tashkilotlar rahbarlari va ularning o'rinbosarlari;

O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyasi;

Qo'mitaning Ichki audit, korrupsiyaga qarshi komplayens va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish boshqarmasi boshlig'i;

Qo'mitaning Yuridik boshqarmasi boshlig'i, hududiy boshqarmalar va idoraviy mansub tashkilotlardagi huquqiy va yuridik masalalar bo'yicha mas'ul tarkibiy bo'linma;

Qo'mitaning Inson resurslari va xodimlar salohiyatini rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i (hududiy boshqarmalarda, bo'ysunuvchi muassasalarda);

9. Ushbu Nizomning 7-bandida ko'rsatilgan manbalardan Qo'mita tizimiga kelib tushgan korrupsiyaviy harakatlar to'g'risidagi har qanday ma'lumotlar asosida Ichki audit, korrupsiyaga qarshi komplayens va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish boshqarmasi tomonidan xizmat tekshiruvi o'tkazish uchun yetarli asoslar va ma'lumotlar mavjudligi, shuningdek, korrupsiya xarakteridagi ma'lumotlarning Qo'mita tizimi xodimlariga daxldorligi nuqtai-nazaridan dastlabki tekshiruv va tahlillar o'tkaziladi.

10. O'z o'rnida, o'ziga nisbatan tekshiruv olib borilayotgan va/yoki ular bilan manfaatlar to'qnashuvi kelib chiqishi mumkin bo'lgan Qo'mita tizimining xodimlarini dastlabki tekshiruv jarayoniga jalb qilish taqiqlanadi.

11. Dastlabki tekshiruv O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasida korrupsiyaviy xatti-harakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari to'g'risida ma'lumot olingan kundan boshlab 10 (o'n) ish kuni ichida amalga oshiriladi.

12. Dastlabki tekshirish xizmat tekshiruvi hisoblanmaydi va ushbu Nizomning 3 – 5-boblarida ko‘zda tutilgan tartib-taomillarning bajarilishini nazarda tutmaydi.

13. Dastlabki tekshiruv natijalariga ko‘ra, qonunbuzarlik sodir bo‘lganligi, sodir bo‘lishi mumkinligi yoki davom etayotganligi va bu Qo‘mita tizimining faoliyati bilan bog‘liq deb taxmin qilish uchun asos bo‘lgan taqdirda, ya‘ni xizmat tekshiruvi uchun asoslar mavjud bo‘lsa, bunda Ichki audit, korrupsiyaga qarshi komplayens va huquqni qo‘llash amaliyotini o‘rganish boshqarmasi (korrupsiyaviy xatti-harakatlari uchun) yoki Inson resurslari va xodimlar salohiyatini rivojlantirish boshqarmasi (odob-axloq qoidalarini buzish holatlari uchun) darhol Qo‘mita raisiga xizmat tekshiruvni boshlash to‘g‘risida xizmat xati kiritadi.

14. Agar Xizmat tekshiruvi Qo‘mitaning idoraviy mansub tashkiloti rahbari yoki uning o‘rinbosarlariga nisbatan xizmat tekshiruvi boshlangan taqdirda, xizmat xati Qo‘mita raisi nomiga tuzilishi kerak.

15. Agar Xizmat tekshiruvi Qo‘mita rahbari yoki uning o‘rinbosarlariga nisbatan tayinlangan taqdirda (korrupsion harakatni sodir etishda, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida va Qo‘mitaning ichki hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa korrupsiyaga qarshi me‘yorlarni buzishda, shu jumladan manfaatlar to‘qnashuvi holatlarini yashirishda gumon qilingan taqdirda), tegishli ma‘lumotlar Ichki audit, korrupsiyaga qarshi komplayens va huquqni qo‘llash amaliyotini o‘rganish boshqarmasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuboriladi.

16. Qo‘mita rahbari xizmat xabari olgan kundan boshlab 3 (uch) ish kuni ichida xizmat tekshiruvni o‘tkazish yoki o‘tkazishni rad etish to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

17. Qo‘mita rahbari murojaat materiallarini xizmat tekshiruvi o‘tkazmasdan O‘zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborish to‘g‘risida qaror qabul qilishi mumkin.

18. Xizmat tekshiruvi o‘tkazish to‘g‘risidagi qaror bilan bir vaqtning o‘zida Qo‘mita rahbari xizmat tekshiruvi o‘tkazish uchun ishchi guruh rahbarini tayinlaydi va unga ishchi guruh tarkibini shakllantirish va tekshiruv o‘tkazish uchun buyruq tayyorlash to‘g‘risida ko‘rsatma beradi.

19. Ishchi guruh rahbari etib Ichki audit, korrupsiyaga qarshi komplayens va huquqni qo‘llash amaliyotini o‘rganish boshqarmasi boshlig‘i (xodimi) tayinlanadi. Ichki audit, korrupsiyaga qarshi komplayens va huquqni qo‘llash amaliyotini o‘rganish boshqarmasi boshlig‘iga (xodimiga) nisbatan xizmat tekshiruvi boshlangan taqdirda, Qo‘mita rahbarining ko‘rsatmasiga asosan ishchi guruhga boshqa xodim rahbar sifatida tayinlanadi.

20. Xizmat tekshiruvi o‘tkazish to‘g‘risidagi buyruqda quyidagi ma‘lumotlar ko‘rsatilishi kerak:

xizmat tekshiruvi predmeti (mavzusi):

xizmat tekshiruvi o‘tkazishga asos bo‘lgan sabab va holatlar:

xizmat tekshiruvi o‘tkazishga sabab bo‘lgan qoidabuzarlikni sodir etishda gumonlanayotgan xodim (xodimlar) ma‘lum bo‘lgan taqdirda, uning (ularning) to‘liq ismi va lavozimi (tarkibiy tuzilma (boshqarma, bo‘lim) nomi bilan);

ishchi guruh rahbari va a'zolarining to'liq ismi va lavozimi (tarkibiy tuzilma (boshqarma, bo'lim) nomi bilan) ko'rsatilgan holda xizmat tekshiruv uchun mas'ul bo'lgan ishchi guruh a'zolari;

ishchi guruh rahbari va a'zolarining maxfiy axborotdan foydalanish huquqini olish va Qo'mitaning boshqa xodimlarini xizmat tekshiruvga jalb qilish borasidagi huquqlari;

Qo'mita tizimi xodimlarining xizmat tekshiruv o'tkazish uchun ishchi guruhga amaliy yordam ko'rsatishi majburiyati;

xizmat tekshiruv natijalarini Qo'mita rahbariga taqdim etish muddati.

21. Xizmat tekshiruv o'tkazish to'g'risidagi buyruq loyihasi Qo'mita rahbariga imzolash uchun xizmat tekshiruv o'tkazishga qaror qabul qilingandan so'ng 3 (uch) ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda taqdim etilishi kerak.

### **III bob. Xizmat tekshiruv o'tkazish ishchi guruhini tuzish**

22. Xizmat tekshiruv o'tkazish ishchi guruhi tarkibiga Qo'mita tizimining quyidagi tarkibiy bo'linmalari vakillari kiritilishi kerak:

Ichki audit, korrupsiyaga qarshi komplayens va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish boshqarmasi;

Inson resurslari va xodimlar salohiyatini rivojlantirish boshqarmasi (kadrlar bo'limi);

Yuridik boshqarma.

23. Ishchi guruh tarkibiga funkSIONALLIGI ixtisoslashgan yoki xizmat tekshiruv predmeti bilan bog'liq bo'lgan boshqa tarkibiy tuzilma xodimlari kiritilishi mumkin.

24. Quyidagi hollarda va/yoki xizmat tekshiruv natijalaridan bevosita yoki bilvosita manfaatdor bo'lgan Qo'mita tizimi xodimlari ishchi guruh rahbari va a'zosi etib tayinlanmaydi:

xodim, o'ziga nisbatan xizmat tekshiruv o'tkazilayotgan xodimning yaqin qarindoshi bo'lsa;

xodim, o'ziga nisbatan xizmat tekshiruv o'tkazilayotgan xodimga to'g'ridan-to'g'ri bo'ysunsa;

xodim, o'ziga nisbatan xizmat tekshiruv o'tkazilayotgan xodimning bevosita rahbari bo'lsa (Qo'mita, hududiy va tarkibiy bo'linma rahbari bundan mustasno);

o'ziga nisbatan xizmat tekshiruv o'tkazilayotgan funksiyaga mas'ul bo'lgan Qo'mita rahbarining o'rinbosari;

tekshiruv yakunidan bevosita yoki bilvosita manfaatdor ekanligi haqida gumon (masalan birga ta'lim olgan, bir hududdan bo'lgan, ishqiy munosabatlarda, xizmat tekshiruv o'tkazilayotgan xodim bilan oshkora ziddiyatga ega va hok.) bo'lgan boshqa xodimlar.

25. Ishchi guruhni shakllantirish uchun mas'uliyat ishchi guruh rahbari zimmasida bo'ladi. U ishchi guruhning potentsial a'zolarini o'ziga nisbatan xizmat tekshiruv o'tkazilayotgan xodim bilan ushbu Nizomning 24-bandida nazarda tutilgan manfaatlar to'qnashuvi mavjudligini aniqlash maqsadida tekshirishi shart.

#### IV bob. Xizmat tekshiruvini o'tkazish

26. Xizmat tekshiruvi Qo'mita rahbari tomonidan xizmat tekshiruvi o'tkazish to'g'risidagi buyruqni imzolagan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kundan ortiq bo'lmagan muddatda o'tkazilishi kerak.

27. Xizmat tekshiruvi jarayonida 26-bandda ko'rsatilgan muddatlarning oshishiga olib keladigan qo'shimcha tartib-taomillar (shu jumladan, xodimlar va boshqa shaxslar bilan qo'shimcha suhbatlar o'tkazish) va qo'shimcha hujjatlarni talab qilish zarur bo'lgan taqdirda, ishchi guruh rahbari darhol, lekin dastlab belgilangan muddat tugashidan oldin Qo'mita raisiga xabar berishi kerak. Bunday hollarda xizmat tekshiruvni o'tkazish muddati o'ttiz (30) kalendar kundan ortiq bo'lmagan muddatga uzaytirilishi mumkin.

28. O'ziga nisbatan xizmat tekshiruvi o'tkazilayotgan xodim yo'q bo'lganda (ta'til, betoblik, xizmat safari va h.k.), agar uning yo'qligi xizmat tekshiruvi o'tkazishga imkon bermasa, xizmat tekshiruvi vaqtincha to'xtatiladi va uning muddati ushbu xodim yo'qligi davriga avtomatik ravishda uzaytiriladi. Shu bilan birga, agar xodim 30 (o'ttiz) kalendar kundan ortiq vaqt davomida yo'q bo'lsa va/yoki boshqa yo'l bilan xizmat tekshiruvda ishtirok etishdan bo'yin tovlagan taqdirda, xizmat tekshiruvi, uning ishtirokisiz, Qo'mita raisi bilan kelishilgan holda o'tkazilishi mumkin va bu holat xizmat tekshiruvi natijalarida aks ettirilishi shart.

29. Ishchi guruh rahbarining tavsiyasiga ko'ra va Qo'mita raisining buyrug'i asosida, o'ziga nisbatan xizmat tekshiruvi o'tkazilayotgan xodim(lar) vaqtincha xizmat vazifalarini bajarishdan chetlatib qo'yilishi va/yoki Qo'mita tizimining muayyan axborot tizimlaridan, hujjatlaridan va/yoki moddiy boyliklaridan foydalanish huquqini cheklab qo'yilishi mumkin.

30. Xizmat tekshiruvi o'tkazish to'g'risidagi va/yoki xodim(lar) xizmat vazifalarini bajarishdan chetlatilganligi yoki Qo'mita tizimining muayyan axborot tizimlaridan, hujjatlaridan va/yoki moddiy boyliklaridan foydalanish huquqi cheklab qo'yilganligi to'g'risidagi buyruq imzolagan paytdan boshlab, 1 (bir) ish kunidan kechikmagan muddatda, ishchi guruh rahbari ushbu buyruq nusxasini taqdim etgan xolda o'ziga nisbatan xizmat tekshiruvi o'tkazilayotgan xodim(lar)ga xabar beradi. Ushbu holatda qabul qilingan buyruq haqida, ustidan xizmat tekshiruvi o'tkazilayotgan xodim, o'sha kuniyoq buyruqqa imzo chektirilgan holda tanishtiriladi. Buyruq bilan tanishish rad etilgan holda bu haqida ishchi guruh rahbari tomonidan dalolatnoma tuziladi.

31. Xizmat tekshiruvi jarayonida Qo'mita tizimining boshqa xodimlari sodir etilgan va/yoki davom sodir etilayotgan qonunbuzarlikka aloqadorligini ko'rsatuvchi faktlar aniqlangan taqdirda, zaruriyatga qarab, ishchi guruh rahbarining tashabbusi bilan xizmat vazifalarini bajarishdan chetlatish yoki Qo'mita tizimining muayyan axborot tizimlaridan, hujjatlaridan va/yoki moddiy boyliklaridan foydalanish huquqini cheklash to'g'risidagi buyruq Qo'mita raisi tomonidan tasdiqlash uchun tayyorlanishi mumkin.

32. Xodimni vaqtincha xizmat vazifalarini bajarishdan chetlatish muddati xizmat tekshiruvi o'tkazish muddatidan oshmasligi kerak.

## V bob. Xizmat tekshiruvi jarayonida o'rganiladigan ma'lumotlar

33. Xizmat tekshiruvi davomida ishchi guruh qoidabuzarlik bilan bog'liq ma'lumotlarni to'playdi, tahlil qiladi va hujjatlashtiradi, shu jumladan quyidagilarni:  
qoidabuzarlik sodir etilganligi yoki etilmaganligi;  
qoidabuzarlik nimada ifoda etilganligi, uni sodir etish maqsadi va sababi;  
O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi normalari va/yoki Qo'mita tizimining ichki hujjatlari buzilganligi;  
qoidabuzarlik holatlari (vaqti, joyi, amalga oshirish yo'llari va usullari);  
qoidabuzarlik sodir etilishida ishtirok etgan shaxslar doirasi (Qo'mita tizimining xodimlari va uchinchi shaxslar ham)  
sodir etilgan qoidabuzarlikning og'ir-yengilligi;  
Qo'mita tizimiga yetkazilgan moddiy va nomoddiy, obro'-e'tibor xarakteridagi yetkazilgan zararning mohiyati va hajmi;  
qoidabuzarlik sodir etilishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan boshqa ma'lumotlar.

34. Xizmat tekshiruvi davomida o'rganiladigan ma'lumotlar manbalari quyidagilar bo'lishi mumkin:

o'ziga nisbatan xizmat tekshiruvi o'tkazilayotgan xodim(lar), Qo'mita tizimining boshqa xodimlari va boshqa uchinchi shaxslarning yozma va/yoki og'zaki tushuntirishlari;

tasdiqlovchi hujjatlar (qog'oz va elektron ko'rinishda);  
omnaviy foydalanish uchun Internet tarmog'ida joylashtirilgan ma'lumotlar manbalaridan olingan ma'lumotlar;  
foto, audio va video yozuvlar;  
qoidabuzarlik bilan bog'liq boshqa materiallar.

35. Yuqoridagi barcha manbalardan olingan ma'lumotlar, shuningdek boshqa har qanday, shu jumladan maxfiy ma'lumotlar, ishchi guruh tomonidan Qo'mita tizimida qabul qilingan barcha tartib-taomillardan foydalangan holda, shuningdek, Qo'mitaning ichki aktlari va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ravishda olinishi va qo'llanishi kerak.

36. Qo'mita tizimi xodimlari yoki boshqa jalb qilingan shaxslar bilan suhbatlar/so'rovnomalar/uchrashuvlar audio/video axborot tashuvchisida yozib olinishi mumkin, keyinchalik suhbat haqida ma'lumotnoma tayyorlanadi (audio/video axborot tashuvchisi xizmat tekshiruvi materiallariga qo'shib qo'yiladi).

Audio va video qaydni amalga oshirishdan oldin suhbat o'tkazilayotgan shaxsning roziligi olinadi. Rozilik berilmasa audio va video qaydni amalga oshiruvchi uskunalardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

37. Xodim suhbatdan/so'rovdan/tushuntirish berishdan bosh tortgan taqdirda, ishchi guruhining mas'ul a'zosi tomonidan dalolatnoma tuziladi (namunaviy shakl ushbu Nizomning 2-ilovasida keltirilgan), unga ishchi guruhning barcha a'zolari tomonidan imzo qo'yiladi.

38. Ishchi guruh rahbari ushbu xodimga dalolatnoma bilan tanishganini tasdiqlash uchun imzolash zarurligi to'g'risida xabar beradi. Xodim dalolatnomani



imzolashdan bosh tortgan taqdirda, ishchi guruh rahbari dalolatnomaga tegishli belgi qo'yadi.

39. O'ziga nisbatan xizmat tekshiruvini o'tkazilayotgan xodim tomonidan dalolatnoma (boshqa hujjatlar) imzolanmaganligi, unga xizmat tekshiruvini natijalariga ko'ra tanlangan javobgarlik choralari qo'llanilishidan ozod qilmaydi.

## **VI bob. Ishchi guruh rahbari va a'zolarining huquqlari va majburiyatlari**

40. Ishchi guruhning rahbari xizmat tekshiruvining samaradorligi va natijasi uchun, shu jumladan ishchi guruh a'zolari harakatlarining xizmat tekshiruvining barcha bosqichlarida ushbu Nizomda belgilangan talablarga muvofiqligi uchun javobgardir.

41. Xizmat tekshiruvini jarayonida ishchi guruh rahbari quyidagi funksiyalarni bajaradi:

xizmat tekshiruvini yo'nalishlarini va amalga oshiriladigan tadbirlarni belgilaydi, ishchi guruh a'zolari oldiga vazifalar qo'yadi;

ishchi guruh tomonidan o'tkaziladigan xizmat tekshiruvini tashkillashtiradi va muvofiqlashtiradi;

ishchi guruh tomonidan xizmat tekshiruvini ushbu Qoidalarga muvofiq o'tkazilishini nazorat qiladi;

xizmat tekshiruvini o'tkazish uchun intervyu suxbat/so'roq o'tkazish va tushuntirishlar olish uchun xodimlar va boshqa shaxslar ro'yxatini, shuningdek zarur ma'lumotlar va hujjatlar ro'yxatini kelishadi;

zarur bo'lgan vaqtinchalik choralarni ko'radi (masalan, Qo'mita tizimida ko'zda tutilgan qog'oz va elektron axborot tashuvchilarida hujjatlar va boshqa ma'lumotlarni yo'q qilish jarayonlarini to'xtatib qo'yishni so'raydi, tekshiruv tugagunga qadar tegishli xodimlarni lavozimidan chetlatib turishni tavsiya qiladi, zarur bo'lgan taqdirda tergovning maksimal muddatlarini uzaytirish tashabbusi bilan chiqadi va h.k.);

xizmat tekshiruvini natijalarini Qo'mita raisiga xizmat tekshiruvini o'tkazish to'g'risidagi buyruqqa muvofiq belgilangan muddatlarda taqdim etilishini ta'minlaydi.

42. Xizmat tekshiruvini o'tkazishda ishchi guruhning rahbari va boshqa a'zolari quyidagilarga haqlidir:

so'rovlar/suhbatlar o'tkazish va Qo'mita tizimi xodimlaridan kerakli ma'lumotlar va tushuntirishlarni olish, davom etayotgan xizmat tekshiruvining mohiyati to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishi mumkin bo'lgan boshqa uchinchi shaxslarni, shuningdek, tashqi ekspertlarni kerakli ma'lumotlarni olish uchun taklif qilish;

tushuntirishni yozma ravishda va/yoki zarur hollarda audio va/yoki video yozuvlardan foydalangan holda tushuntirish olinayotgan shaxsning yozma roziligi bilan tushuntirishlarni qayd tartib-taomillarini amalga oshirish;

Qo'mita tizimi xodimlaridan barcha kerakli materiallarni so'rash va olish, shuningdek, olib borilayotgan xizmat tekshiruviga tegishli bo'lishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni so'rash va ulardan foydalanish huquqini olish;

Qo'mita tizimining mol-mulki mavjudligi va saqlanishini (shu jumladan xatlov, audit) amaliy tekshiruvlarini o'tkazish;

o'tkazilayotgan xizmat tekshiruvi doirasida o'z xizmat vazifalarini bajarish maqsadida foto va video suratlar olish.

43. Ishchi guruh rahbari va uning a'zolari quyidagilarga majburdirlar:

xizmat tekshiruvlarni ushbu Nizom, Qo'mita tizimining boshqa ichki hujjatlari va O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirishga;

xizmat tekshiruvi bilan bog'liq masalalarda yetarli bilimga ega bo'lishlari shart, shu sababdan ular O'zbekiston Respublikasining amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarini, Qo'mita tizimining ichki hujjatlarini, shuningdek Qo'mita tizimining funksiyalarini bajarish xususiyatlarini o'rganib chiqishlari shart;

o'tkazilayotgan xizmat tekshiruvi natijalari bo'yicha mavjud bo'lgan barcha materiallarni to'plash va qoidabuzarlik holatlarini aniqlashtirish maqsadida olingan ma'lumotlarni har tomonlama, to'liq va xolisona tahlil qilish va hujjatlashtirish uchun barcha zarur qonuniy choralarni ko'rishga;

tushuntirishlar olish tartib-taomillarini hujjatlashtirish;

xizmat tekshiruvi maqsadlariga ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarning (hujjatlar, elektron ma'lumotlar va boshqalar) xavfsizligini ta'minlash bo'yicha choralar ko'rishga;

to'liq maxfiylikni saqlash va xizmat tekshiruvi doirasida olingan ma'lumotlarni oshkor qilmaslikka, ushbu Nizomda, Qo'mita tizimining boshqa ichki hujjatlarida va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Bunday ma'lumotlarni oshkor qilish faqat Qo'mita raisining yozma roziligini olganidan so'ng amalga oshirilishi mumkin;

xizmat tekshiruvi natijalarini ushbu Nizom talablariga muvofiq rasmiylashtirishiga, shu jumladan javobgarlik choralari qo'llash bo'yicha takliflarni ishlab chiqishi, shuningdek qoidabuzarlikning sabablarini va qoidabuzarlikni sodir etish imkonini bergan shartlarni-sharoitlarni bartaraf etishga.

## **VII bob. O'ziga nisbatan xizmat tekshiruvi o'tkazilayotgan xodimlar huquqlari**

44. O'ziga nisbatan xizmat tekshiruvi o'tkazilayotgan xodim quyidagilarga haqlidir:

xizmat tekshiruvi o'tkazilayotgani to'g'risida xabardor bo'lishga;

og'zaki va yozma tushuntirishlar berishga, bunda u qoidabuzarlik, uning holati va sabablari, xizmat tekshiruvi jarayoni to'g'risida o'z fikrini bildirishga, shuningdek uning tushuntirishlarini tasdiqlovchi dalillarni taqdim etishga haqlidir;

tushuntirish berishdan bosh tortishga – bu holda ushbu Qoidalarning 37-39-bandlarida nazarda tutilgan tartibda dalolatnoma tuziladi;

o'zi tomonidan taqdim etilgan o'tkazilayotgan xizmat tekshiruvi bilan bog'liq hujjatlar va materiallarni xizmat tekshiruvi materiallariga ilova qilishni talab qilishga;

xizmat tekshiruvi tugaganligi to'g'risida xabarnoma olishga va bunday xabarnoma berilganidan so'ng 2 (ikki) ish kuni ichida xizmat tekshiruvi natijalari to'g'risidagi xulosa bilan tasdiqlangunga qadar, unga tegishli bo'lgan qismi bilan tanishib chiqishga, u foydalanish huquqiga ega bo'lmagan, maxfiy ma'lumotlar bundan mustasno;

xizmat tekshiruvi natijalaridan, shuningdek, ishchi guruhi tomonidan xizmat tekshiruvi natijalariga ko'ra tavsiya etilgan javobgarlik chorasidan norozi bo'lgan taqdirda, Qo'mita tizimining ichki hujjatlariga va O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida Qo'mita raisiga ushbu xulosa ustidan shikoyat qilishga.

### **VIII bob. Xizmat tekshiruvi o'tkazishga jalb etilgan boshqa xodimlarning huquqlari va majburiyatlari**

45. Xizmat tekshiruvi o'tkazilishiga jalb etilgan xodimlar xizmat tekshiruvi davomida ishchi guruhga har tomonlama yordam berishga, shu jumladan so'ralgan tushuntirishlar, ma'lumotlar va hujjatlarni taqdim etishga, ishchi guruh a'zolari bilan xizmat tekshiruvi bo'yicha o'tkaziladigan so'rovnomada/suhbatda qatnashishlari shart.

46. Xizmat tekshiruvi o'tkazilishiga jalb etilgan xodimlar xizmat tekshiruvida ishtirok etishi munosabati bilan ularga ma'lum bo'lgan xizmat tekshiruvi ma'lumotlarini oshkor qilishga haqli emas.

47. Xizmat tekshiruvi o'tkazilishiga jalb etilgan xodimlar quyidagilarga haqlidir:

xizmat tekshiruvi olib borilayotgan shaxsning yaqin qarindoshlari va unga bevosita to'g'ridan-to'g'ri bo'ysunuvchi xodimlar o'zini o'zi rad qilishga;

Qo'mita raisiga ishchi guruhi rahbari va a'zolarining harakatlari (harakatsizligi) va qarorlari ustidan shikoyat qilishga.

48. Qo'mita tizimi xodimi tomonidan xizmat tekshiruvi o'tkazilishiga har qanday to'sqinlik qilishi, shu jumladan xodim so'rovga/suhbatga kelmaganligi va/yoki ma'lumotni taqdim etmaganligi yoki o'z vaqtida taqdim etmaganligi, noto'g'ri (yolg'on) ma'lumotlar, yozma tushuntirishlar taqdim etganligi xodim tomonidan ushbu Qoidalar talablari buzilgan deb e'tirof etiladi va bunday xodimni O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan javobgarlikka tortishga asos bo'lishi mumkin.

### **IX bob. Xizmat tekshiruvi natijalarini rasmiylashtirish**

49. Xizmat tekshiruvi natijalariga ko'ra ishchi guruh rahbari yoki uning topshirig'iga ko'ra ishchi guruh a'zolaridan biri yozma xulosa tuzadi (namunaviy shakl ushbu Qoidalarning 3-ilovasida keltirilgan) va ushbu xulosa ishchi guruh rahbari, barcha ishchi guruh a'zolari, shuningdek o'ziga nisbatan xizmat tekshiruvi o'tkazilgan xodim tomonidan imzolanadi.

50. Xizmat tekshiruvi natijalari to'g'risidagi xulosa kirish, tavsiflovchi va yakunlovchi qismdan iborat bo'lib, u odatda quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Kirish qismida:

- xizmat tekshiruvi o'tkazish uchun sabab va asos;
- xizmat tekshiruvi o'tkazish to'g'risida buyruq sanasi va raqami;
- ishchi guruh rahbari va a'zolarining F.I.Sh. va lavozimi (tarkibiy bo'linma nomi bilan);
- xizmat tekshiruvi o'tkazilgan davr.

Tavsiflovchi qismida:

- qonunbuzarlik mavjudligi va u qanday ifodalangan;
- qonunbuzarlik joyi, vaqti, usuli va boshqa holatlari;
- o'ziga nisbatan xizmat tekshiruvi o'tkazilgan xodimlarning ma'lumotlari (F.I.Sh., lavozimi (tarkibiy bo'linma nomi bilan), mehnat shartnomasi tuzilgan sana, ushbu xodimlarga nisbatan avval xizmat tekshiruvlar o'tkazilganmi yoki yo'qmi);
- qoidabuzarlikka aloqador shaxslar doirasi;
- qoidabuzarlikni sodir etishning maqsadlari va sabablari;
- qoidabuzarlikni sodir etishning sabablarini va sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar;
- ma'lum bir xodimning aybini yoki uning aybi yo'qligini tasdiqlovchi to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish;
- o'ziga nisbatan xizmat tekshiruvi o'tkazilgan xodim tomonidan o'zining himoyasi uchun berilgan dalillar, ularni tekshirish natijalari.

Yakunlovchi qismida:

- o'ziga nisbatan xizmat tekshiruvi o'tkazilgan shaxslarning harakatlarida (harakatsizligida), intizomiy qoidabuzarlik/ huquqbuzarlik belgilari borligi yoki yo'qligi to'g'risida xulosa;
- qaysi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining normalari va Qo'mita tizimining ichki hujjatlari buzilganligi;
- intizomiy qoidabuzarlik/huquqbuzarlik natijasida yetkazilgan zararning xarakteri va miqdori (mavjud bo'lgan taqdirda);
- aybdorlarga nisbatan javobgarlik choralari bo'yicha takliflar;
- Qo'mitaning tegishli tarkibiy bo'linmalari rahbarlari bilan kelishilgan, qoidabuzarlik sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni va sabablarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar;
- xizmat tekshiruvi materiallarini huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborish zarurati.

51. Ishchi guruhi a'zolaridan biri xizmat tekshiruvi natijalaridan yoki xizmat tekshiruvi natijalari to'g'risidagi xulosaning ayrim qismlari mazmunidan norozi bo'lgan taqdirda, ishchi guruhning bunday a'zosi xulosaga, yozma shaklda rasmiylashtiriladigan va xulosaga ilova qilinadigan alohida fikrni bildirgan holda imzo qo'yadi.

52. O'tkazilgan xizmat tekshiruvi natijalari to'g'risidagi xulosa xizmat tekshiruvi tugaganligi to'g'risida xabar bilan birgalikda, xulosa tasdiqlanishidan oldin xizmat tekshiruvi yakunlanganidan 2 (ikki) kundan oshmagan muddatda o'ziga nisbatan xizmat tekshiruvi o'tkazilgan xodimga tanishish uchun taqdim etiladi. O'ziga nisbatan xizmat tekshiruvi o'tkazilgan xodim, xizmat tekshiruvi

natijalaridan norozi bo'lgan taqdirda, o'z yozma mulohazalarini xulosaga ilova qilishga haqli.

53. Ishchi guruhi rahbari xizmat tekshiruv natijalari to'g'risidagi xulosani xizmat tekshiruv materiallari bilan Qo'mita raisiga tasdiqlash va o'tkazilgan xizmat tekshiruviga oid qaror qabul qilish uchun taqdim etadi. xizmat tekshiruv natijalari to'g'risidagi xulosa va materiallari xizmat tekshiruv o'tkazish to'g'risidagi buyruq bajarilishini tasdiqlovchi hujjatlardir.

54. Xizmat tekshiruv natijalariga ko'ra, Qo'mita raisi tegishli buyruq bilan, quyidagi masalalar bo'yicha bir yoki bir nechta ko'rsatmalar beradi:

qonunbuzarlik to'g'risidagi ma'lumotlar tasdiqlanmaganligi sababli xizmat tekshiruvini tugatish;

sabablar/asoslar va muddatlarni, zarur hollarda ishchi guruhi tarkibini o'zgartirishni ko'rsatgan holda xizmat tekshiruv materiallarini qayta ko'rib chiqish uchun qaytarish;

aybdor xodimga nisbatan intizomiy jazo choralari qo'llash va/yoki uni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Qo'mita tizimining ichki hujjatlarida nazarda tutilgan moddiy va/yoki boshqa javobgarlikka tortish;

xodimga nisbatan profilaktik-ogohlantiruvchi choralari ko'rish (masalan, navbatdan tashqari trening yoki instruktaj, intizomiy choralarni nazarda tutmaydigan boshqa harakatlar);

kelajakda shunga o'xshash qoidabuzarliklarning oldini olish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

xodimning huquqbuzarligi to'g'risidagi materiallarni, ularda O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq huquqbuzarlik (jinoyat) belgilari bo'lgan taqdirda, huquqni muhofaza qilish organlariga yuborish.

55. Xizmat tekshiruv natijalari to'g'risidagi xulosa, shuningdek Qo'mita raisining ko'rsatmasi Ichki audit, korrupsiyaga qarshi komplayens va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish boshqarmasiga, Inson resurslari va xodimlar salohiyatini rivojlantirish boshqarmasiga, shuningdek qoidabuzarlik faktlari haqida xabar bergan ariza beruvchilarga taqdim etiladi (ariza beruvchilarga – umumlashtirilgan shaklda va maxfiy ma'lumotlar chiqarib tashlangan holda).

## **X bob. Qo'mita raisi qarorlarini bajarilishini nazorat qilish**

56. Xizmat tekshiruv natijalari to'g'risidagi tasdiqlangan xulosada nazarda tutilgan ko'rsatmalar va chora-tadbirlarning bajarilishini nazorat qilish Ichki audit, korrupsiyaga qarshi komplayens va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi. Xizmat tekshiruv natijalari to'g'risidagi tasdiqlangan xulosada ko'rsatilgan ko'rsatmalar va tavsiyalarning bajarilishi to'g'risida, ularning bajarilishiga mas'ul bo'lgan Qo'mita tizimining tarkibiy bo'linmalari rahbarlari (boshqa xodimlari) Ichki audit, korrupsiyaga qarshi komplayens va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish boshqarmasiga tegishli buyruq bilan belgilangan muddatda xabar berishadi.

57. Qo'mita tizimidagi tegishli tarkibiy bo'linmalar rahbarlari (boshqa xodimlar) xizmat tekshiruv natijalari to'g'risidagi xulosada keltirilgan ko'rsatma va

tavsiyalarni bajarmagan taqdirda, Ichki audit, korrupsiyaga qarshi komplayens va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish boshqarmasi boshlig'i yuzaga kelgan vaziyatni hal etish maqsadida Qo'mita raisiga murojaat qilish huquqiga ega.

## **XI bob. Xizmat tekshiruvi hujjatlarini saqlash va ulardan foydalanish huquqi**

58. Xizmat tekshiruvlarida ishtirok etayotgan Qo'mita tizimining xodimlari, xizmat tekshiruvi jarayonida ularga ma'lum bo'lgan ma'lumotlarni maxfiyligini ta'minlaydi (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno).

59. Korrupsiya harakatlari bo'yicha xizmat tekshiruvlariga oid va qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanish huquqi Qo'mita raisi, Qo'mitaning tegishli tarkibiy bo'linmalari rahbarlari (xizmat tekshiruviga xodimlari jalb etilgan tarkibiy bo'linmalarga tegishli), Ichki audit, korrupsiyaga qarshi komplayens va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish boshqarmasi xodimlari va ishchi guruh a'zolarida mavjud.

60. Boshqa xodimlar o'z xizmat vazifalarini bajarishi uchun xizmat tekshiruvlariga oid ma'lumotlardan foydalanish zarurati vujudga kelganda Qo'mita raisining yozma roziligini olishlari shart.

61. Har bir xizmat tekshiruvlariga oid materiallar xizmat tekshiruvi ishchi guruhining mas'ul a'zosi tomonidan alohida hujjatlar yig'majildiga tikiladi va 5 (besh) ish kuni ichida saqlash uchun Ichki audit, korrupsiyaga qarshi komplayens va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish boshqarmasiga (yoki Inson resurslari va xodimlar salohiyatini rivojlantirish boshqarmasiga) topshiriladi.

62. Ichki audit, korrupsiyaga qarshi komplayens va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish boshqarmasi (yoki Inson resurslari va xodimlar salohiyatini rivojlantirish boshqarmasiga) xodimlari xizmat tekshiruvlariga oid materiallarni saqlash, shuningdek, F.I.Sh. va lavozimi, kirish sanasi qayd etilgan materiallardan foydalanish to'g'risidagi ma'lumotlarning saqlanishini ta'minlash uchun javobgardir.

63. Ichki audit, korrupsiyaga qarshi komplayens va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish boshqarmasi boshlig'i ushbu Nizomga 1-ilovaga muvofiq shaklda korrupsiya faktlari bo'yicha xizmat tekshiruvlarining elektron reestrini yuritadi va xizmat tekshiruvi o'tkazish to'g'risidagi buyruqqa asosan xizmat tekshiruvini boshlash va tugatishda unga kerakli ma'lumotlarni uning natijalari to'g'risidagi tasdiqlangan xulosa asosida kiritilishini ta'minlaydi.

64. Xizmat tekshiruviga oid barcha hujjatlar, shu jumladan xizmat tekshiruvini boshlash to'g'risidagi buyruq, materiallar yig'majildi, reestr va boshqa hujjatlar xizmat tekshiruvi natijalari to'g'risidagi xulosa tasdiqlangan kundan boshlab 10 (o'n) yil davomida saqlanadi.

Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasining markaziy apparati, hududiy boshqarmalari va idoraviy mansub tashkilotlari xodimlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish to'g'risidagi Reglamentiga  
1-ilova

## Xizmat tekshiruvlarini o'tkazish Reyestri shakli

Qo'mita tizimida o'tkazilgan xizmat tekshiruvlari Reyestri

T/r	Xizmat tekshiruvi o'tkazish to'g'risidagi buyruqning raqami va sanasi	Xizmat tekshiruvi natijalari to'g'risidagi xulosaning raqami va sanasi	Xizmat tekshiruvi toifasi <sup>1</sup>	Xizmat tekshiruvi o'tkazilish davri	Ishchi guruh tarkibi	Qoidabuzarlik to'g'risidagi ma'lumotning manbasi	Xizmat tekshiruvi yo'nalishlarining qisqacha tavsifi	Xizmat tekshiruvi natijalarining qisqacha tavsifi	Aniqlangan aybdor shaxslarning ro'yxati	Xizmat tekshiruvi natijalariga ko'ra tasdiqlangan chora-tadbirlar	Bajarish muddatlari va mas'ul ijrochilar	Amalda bajarilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13
1												
2												
3												
4												
5												
...												

<sup>1</sup> Xizmat tekshiruvi, korrupsion harakat yoki odob-axloq qoidalarining buzilishi bo'yicha xizmat tekshiruvi ekanligini ko'rsating.

Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasining  
markaziy apparati, hududiy boshqarmalari va  
idoraviy mansub tashkilotlari xodimlarining  
korrupsiyaviy xatti-harakatlari va odob-axloq  
qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat  
tekshiruvlari o‘tkazish to‘g‘risidagi Reglamentiga  
2-ilova

**Yozma tushuntirish berilmaganligi to‘g‘risida  
DALOLATNOMA**

\_\_\_\_\_ xodimi tomonidan  
(Qo‘mita markaziy apparati, hududiy boshqarmasi, idoraviy mansub tashkilotlari)

«\_\_» \_\_\_\_\_ 20\_\_ y.

Biz, quyida imzo qo‘yuvchilar

\_\_\_\_\_  
(FISh, lavozimi)

\_\_\_\_\_  
(FISh, lavozimi)

\_\_\_\_\_  
(FISh, lavozimi)

Xodim (FISh, lavozimi) 20\_\_ -yilning «--»da

\_\_\_\_\_, dan iborat bo‘lgan qoidabuzarlik sodir  
etilganligi to‘g‘risida yozma tushuntirish berish taklif etilgan bo‘lib, u yozma tushuntirish berishni rad etgani to‘g‘risida  
ushbu akti tuzdik.

Yozma tushuntirish berishni rad etganligi sabablarini xodim (FISh, lavozimi) quyidagilar bilan izohladi

\_\_\_\_\_ (tushuntirish berishni rad etganlik sabablari  
erkin shaklda bayon etilsin).

Dalolatnoma tuzgan shaxslar imzosi:

\_\_\_\_\_  
(imzo)

\_\_\_\_\_  
(FISh)

\_\_\_\_\_  
(imzo)

\_\_\_\_\_  
(FISh)

\_\_\_\_\_  
(imzo)

\_\_\_\_\_  
(FISh)

Dalolatnoma bilan tanishdim\*: (FISh, lavozim, sana, imzo) \_\_\_\_\_



Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasining markaziy apparati, hududiy boshqarmalari va idoraviy mansub tashkilotlari xodimlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish to'g'risidagi Reglamentiga  
3-ilova

**O'tkazilgan xizmat tekshiruvi natijalari to'g'risida  
\_\_\_\_-sonli Xulosa**

1. Asos: Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi raisining " \_\_\_\_ " \_\_\_\_\_ 20\_\_ y. \_\_\_\_-sonli buyrug'i
2. Quyidagi tarkibdagi ishchi guruh tomonidan tuzilgan:

Ishchi guruh rahbari	_____	(lavozim, F.I.Sh)
Ishchi guruh a'zolari	_____	(lavozim, F.I.Sh)
_____	_____	(lavozim, F.I.Sh)
_____	_____	(lavozim, F.I.Sh)
_____	_____	(lavozim, F.I.Sh)
_____	_____	(lavozim, F.I.Sh)
_____	_____	(lavozim, F.I.Sh)

3. Xizmat tekshiruvi o'tkazilgan sana: " \_\_\_\_ " \_\_\_\_\_ 20\_\_ y. dan " \_\_\_\_ " \_\_\_\_\_ 20\_\_ y. gacha.

4. \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_ xizmat tekshiruvi o'tkazish uchun asos bo'ldi.

5. Xizmat tekshiruvi va aniqlangan faktlar:

*quyidagilarni ko'rsatish zarur:*

- qoidabuzarlik mavjudligi va u qanday ifodalangan;
- qonunbuzarlik joyi, vaqti, qoidabuzarlik usullari va boshqa holatlar;
- o'ziga nisbatan xizmat tekshiruvi o'tkazilgan xodimlarning ma'lumotlari (F.I.Sh., lavozimi (tarkibiy bo'linma nomi bilan), mehnat shartnomasi tuzilgan sana, ushbu xodimlarga nisbatan avval xizmat tekshiruvlar o'tkazilganmi yoki yo'qmi);
- qoidabuzarlikka aloqador shaxslar doirasi;
- qoidabuzarlikni sodir etishning maqsadlari va sabablari;
- qoidabuzarlikni sodir etishning sabablarini va sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar;
- ma'lum bir xodimning aybini yoki uning aybi yo'qligini tasdiqlovchi to'plangan ma'lumotlar tahlili;
- o'ziga nisbatan xizmat tekshiruvi o'tkazilgan xodim tomonidan o'zining himoyasi uchun berilgan dalillar, ularni tekshirish natijalari.)

6. Xulosa va takliflar:

*(quyidagilarni ko'rsatish zarur:*

- o'ziga nisbatan xizmat tekshiruvi o'tkazilgan shaxslarning harakatlarida (harakatsizligida), intizomiy qoidabuzarlik/huquqbuzarlik belgilari borligi yoki yo'qligi to'g'risida xulosa;
- qaysi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining normalari va Qo'mita tizimining ichki hujjatlari buzilganligi;
- intizomiy qoidabuzarlik/huquqbuzarlik natijasida yetkazilgan zararining xarakteri va miqdori (mavjud bo'lgan taqdirda);
- aybdorlarga nisbatan javobgarlik choralari bo'yicha takliflar;
- Qo'mitaning tegishli tarkibiy bo'linmalari rahbarlari bilan kelishilgan, qoidabuzarlik sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni va sabablarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar;
- xizmat tekshiruvi materiallarini huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborish zarurati.)

Ishchi guruh rahbari

(ИМЗО)

(F.I.Sh)

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

Ishchi guruh a'zolari

(imzo)

(F.I.Sh)

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

(imzo)

(F.I.Sh)

\_\_\_\_\_

(imzo)

(F.I.Sh)

Xulosa bilan tanishdim:

\_\_\_\_\_

(F.I.Sh., lavozimi)

\_\_\_\_\_

(imzo)

\_\_\_\_\_

(sana)